

## INTENSIV BALIQCHILIK XO‘JALIGIDA KARP BALIQLARINI OZIQLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**O.R. Kuchiyev**

SamVMI Toshkent filiali dotsenti

**G.D. Anarbayeva, Z.SH.Turg’unova, I.K.Turaboyev**

SamVMI Toshkent filiali talabalari

### ANNOTATSIYA

*Yurtimizda baliqchilikni rivojlantirish shuningdek mamlakatimizdagi suv omborlaridan, hovuz va ko‘llardan unumli foydalanib intensiv baliqchilik xo‘jaligidagi karp baliqlarini oziqlantirish texnologiyalarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib baliqchilik ko‘rsatgichini 2-2.5 martagacha oshishini ta‘minlaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *intensiv, omuxta yem, yopiq suv omborlari, oqsillar, fermentlar, karp, piyozli sazan, yalong‘och karp, oyna gilam karp.*

### ТЕХНОЛОГИЯ КОРМЕНИЯ КАРПА ПРИ ИНТЕНСИВНОМ РЫБОЛОВСТВЕ

#### АННОТАЦИЯ

*Развитие рыболовства в нашей стране и также из водоемов в нашей стране. Эффективное использование прудов и озер позволит увеличить скорость вылова рыбы в 2-2,5 раза за счет внедрения технологий кормления карпа при интенсивном рыболовстве.*

**Ключевые слова:** *интенсивно, комбикорм, закрытое водохранилище, белок, фермент, карп зеркальный карп.*

### CARP FEEDING TECHNOLOGY IN INTENSIVE FISHERIES

#### ABSTRACT

*Development of fisheries in our country as well as from reservoirs in our country. Effective use of ponds and lakes will increase the fishing rate by 2-2.5 times by introducing carp feeding technologies in intensive fisheries*

**Keywords:** *intensive, cambifeed, closed reservoir, protein, enzyme, carp, mirror carp.*

#### KIRISH

Mamlakatimizda Orol dengiziga tushadigan Sirdaryo va Amudaryo suvlarining kamayishi natijasida baliq yildan yilga kamayib bormoqda. Umumiy baliq tutushning miqdoriga kelsak, 1970-yilda 65% 1975-yilda 43% 1980-yilda 5% 1990-yilga kelib

0.8% ga tushib qolgan. Ilgarilari O‘zbekiston baliq tutish manbasi bo‘lib, Orol dengizining Janubiy qismidan har yili 240-250.000 sentner baliq ushlanar edi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (2017-yil 7-fevral PF-4947), “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2017-yil 1-may PQ-2939 son), “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (2018-yil 4-aprel PQ 3657 son) va “Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida (2018-yil 6-noyabr PF 4005 son) baliqchilik tarmog‘ida hanuzgacha saqlanib kelayotgan ko‘plab kamchilik va muammolar, ularni samarali hal etish, ishchanlik faolligini oshirish, investitsiyalarni jalb etish, baliq yetishtirish uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar va ishlanmalar sifatini oshirish, ularni natijalarini amaliyotga keng joriy etish maqsadlari qo‘yilgan. Shu jumladan baliq yetishtirishni 2.9 martaga oshirish ko‘zda tutilgan bo‘lib 20000 tonna baliq ovlanishi kerak. Respublika hududida umumiy maydoni 829.5 ming gektarga teng suv omborlari, ko‘llar va havzalar bo‘lgan holda ularning atiga 212ming gektaridagina baliqlar uchratilmoqda.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Dunyo aholisi sonining tez sur‘atlarda oshib borishi ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jumladan baliq va baliq mahsulotlariga bo‘lgan talabining ham tobora o‘shishiga olib kelmoqda. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda faqat uning miqdor ko‘rsatkichini emas, balki ularning salomatligini ta‘minlovchi sifat ko‘rsatkichiga ham alohida e‘tibor berilmoqda. Ushbu dolzarb masalani yechimida baliq va baliq mahsulotlarining o‘rni kata. Baliqchilik mamlakat aholisini parhez go‘shat mahsuloti bilan ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi, chunki baliq go‘shat tarkibi inson organizmi uchun zarur bo‘lgan biologik faol moddalar, mineral moddalar va boshqa turdagi yengil hazm bo‘luvchi to‘yimli moddalarga boy. Insonning go‘shat mahsulotlari hisobiga qabul qiladigan oqsillarning 18-20% suvda yashovchi organizmlarga, asosan baliqlarga to‘g‘ri keladi. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning ma‘lumotiga ko‘ra dunyo bo‘yicha 1958-yilda iste‘mol qilingan baliqlar tirik vazn hisobida 27,9 mln tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, bu

ko'rsatkich 1970-yilga kelib 39,1mln tonnani, 1975-yilda 46.0 mln tonnani, 1985-yilga kelib 70.0 tonnani, 2000-yilda 200 mln tonnani tashkil qilgan.

Respublikada jadal (Intensiv) usulda baliq yetishtirish ishlarini birinchi bosqichda kam harajat talab qiluvchi va hozirda baliqchilikni mahalliyashtirish dasturi orqali ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan hamda konstruktiv jihatdan qurilishi oson bo'lgan oqar suv basseynlarida olib borish maqsadga muvofiq.

Basseynlarning o'lchamlari kvadrat, uzunchoq yoki yumaloq shakilda bo'lishi va baliqchilik xo'jaligi talabidan kelib chiqib uning o'lchamlari 2\*2.5m dan 5-10 metrgacha, chuqurligi esa 0.5-1.0-1.5m ni tashkil etadi.



Basseynlarda doimiy talab etiladigan jarayonlar bu suvning miqdori, basseyni suv bilan ta'minlash tezligi, boqiladigan baliqlarning turi va soniga qarab belgilanadi.

Karpsimon baliqlar uchun suvning minimal aylanishi har 1m<sup>3</sup> suv uchun 3L/sek. Bu ko'rsatkich 1soatda 10800 litrni tashkil qiladi. Suv haroratiga qarab suvni 1-2 soatda to'liq almashtirish imkonini beradi. Masalan basseynning hajmi 15m<sup>3</sup> bo'lgan xolda va unga suv oqib kirishi 6litr/sek ni tashkil etsa 45daqiqada suv to'liq almashinadi.

Baliqlarni ularning turiga mos keladigan yaxshi sifatdagi suvda parvarish qilish kerak. Yopiq suv ta'minoti qurilmalarida faqat samaradorligi 40kg/m<sup>3</sup> va undan yuqori bo'lgan shart-sharoitlarda saqlab, ko'paytirish kerak. Hovuzlarda baliqchilik bilan shug'ullanish uchun odatdagi omuxta yemda eng maqbul holda yem koeffitsiyenti 4-5ga teng bo'ladi. Yani berilgan 4-5kg yemdan 1kg ni o'zlashtiriladi va bu ularning o'sishiga sarflanadi.

### **Yemning kafolatlangan xarakteristikallari**

Ko'rsatkichlar	XS S M L granularlar
Xom protein%	37
Xom moy%	12
Uglevodlar%	31.1
Kul%	7
To'qimalar%	4
Azot, quruq moddalar%	6.5
Fosfor, quruq moddalar%	1.21
Umumiy energiya, Kkal/MDj	4660/19.5
Hazm bo'ladigan energiya, Kkal/MDj	3651/15.3

Hozirgi kunda uchta tur, shuningdek bir nechta kichik turlari bilan, hovuz karplari ko'paytirildi. Ulardan eng keng tarqalgani - piyozli sazan. Bundan tashqari, yalang'och karp va oyna gilam ham mavjud. Karp o'simlik ovqatlarini hayvonlarga qaraganda ko'proq yaxshi ko'radi. Karpning ovqatlanishi xilma-xil. U o'simlik va hayvonlarning ovqatini yeyishi mumkin. U asosan ertalab, kechqurun va kechasi ovqatlantiradi. Kun davomida kamdan-kam ovqatlanadi. Oziq-ovqat izlayotganida, u qirg'oqqa yoki suv omborining sayoz joylariga yaqinlashishi mumkin. Karp boqishga qamish, quyi o'simliklar, bo'rilar, lichinkalar, mollyuskalar, zuluklar paytida mayda qisqichbaqasimonlar kiradi. Karp hamma narsaga - non, qurt, salyangoz, xamir, arpa, makkajo'xori, no'xat uchun ovlanadi. Bundan tashqari, yaqinda u qozonxonalarda muvaffaqiyatli ushlendi. U urug'lantirishdan oldin va keyin (qishdan oldin) intensiv ovqatlantiradi. Teshikli paketlarda qishki sazan. Umuman olganda, sazan, qishdan tashqari, doimiy ravishda intensiv ravishda eydi, uni "suv ostidagi cho'chqa" deb atashadi. U doimiy ravishda oziqlanadi va tez o'sadi, yiliga bir kilogrammgacha o'sishi mumkin. Baliqchilikni intensive rivojlantirishdgi asosiy faktorlardan biri baliqlarni oziqlantirish jarayoni hisoblanadi. Oziqlantirish uchun mahsulot yetishtirish tannarxidagi 40% xarajatlar sarflaniladi.

### Karp balig'ini boqishning kundalik retseplari

Ozuqa turlari	K-111-1 retsepi 2-3 yosh baliqlar uchun %	K-110-1 yosh va urug'lantiruvchi baliqlar uchun
Kunjara va shrot	40	40
Dukkakli o'simliklar: Don	10	15
mahsulotlar: arpa, so'li, makkajo'xori	10 24	9 20
Yormalar: arpa bug'doy	6	4
Baliq, suyak, go'sht uni	3	25
O't uni	2	2
Maydalangan bo'r	1	1
Mikro qo'shmchalar	4	4
Jami	100	100

Karp baliqlarini boqishda kundalik ozuqa tarkibida kunjara, dukkakli o'simliklar, donli o'simliklar: arpa, so'li makkajo'xori, yormalar, baliq suyak unlari va maydalangan bo'r bo'lishi kerak. Agarda baliq ozuqasini 1killogramini 100% deb qaraydigan bo'lsak uning ozuqasi tarkibini jadvaldagi ozuqa turlaridan quyidagi miqdorida tashkil qilish kerak. Bo'r, tuz, karbamid, amiyakli suv, antibiotiklar, fermentlar, vitaminli konsentratlar va boshqa mineral moddalar baliqlar uchun zarur bo'lgan va oz miqdorda ozuqaga qo'shiladiga moddalardir.

### XULOSA

Aholini baliq mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, baliqchilik sohasini erkin bozor iqtisodiyoti asosida takomillashtirish va taraqqiy etirish uchun, mavjud suv resurslaridan unumli foydalanish va samaradorligini oshirish, baliqchilik fermalarida ekologik muhitni yaratish va baliqchilikni intensiv rivojlantirishdagi asosiy texnologik faktorlarni ya'ni baliqlarni kansentrlangan ozuqa bilan oziqlantirish, havzalarni mineral va organik o'g'itlash, tabiiy mahsuldorligini oshirish tadbirlarini keng miqyosda jorish etish orqali amalga oshirish rejalashtirilgan.

### REFERENCES

1. Suvankulov Sh., Abduganiyev Z. "Baliqchilik gidroinshootlari va mexanizatsiyalash". Toshkent 2021-yil

- 
2. Niyozov D.S, G'afforov H.G' "Baliqlarning oziqlanishi" darslik. Toshkent
  3. 2012-yil
  4. Kamilov B.G., Xalilov I.I. "Yopiq suv ta`minoti qurilmalari O'zbekiston sharoitida baliq yetishtirishning istiqbolli tizimi sifatida". Toshkent 2017-yil
  5. Azimkulovich Y.M., Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti "O'zbekistonning turli tipdagi suv havzalarida baliq maxsuldorligini oshirishning biologik asoslari" Toshkent 2019- yil.
  6. Xolmirzayev D., Haqberdiyev P.S., Shohimardonov D.R., Shaptaqov E.S. "Baliqchilik asoslari" Toshkent- "ILM ZIYO"-2016y
  7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Baliqchilik>
  8. <https://agro-olam.uz/baliq-ozuqalari/>